

## **Eski shahar ovqat komiteti musulmonlar uchun nima foyda keltirdi?**

### **III**

Endi uchinchi ishchi va demokratiya davri. Bu esa ulgi ikkisina qaragʻandada battar boʻldi. Chunki onda uldan xalqning qonin ichub kelganbaʼzi oqsoqol va pudratchilar demokratiya bayrogʻi ostina yashirinub xalqni ochiqdan ochiq qiynay boshladilar. Komitetdagi bir necha haqiqiy bolsheviklarni istisno qilgʻanda qolgʻanlari bolshevik nomi ostina kirub maslak va maqsadlari kissalarini toʻldirmoqdan iborat edi. Mana bular xalqni ovqat komitetidan bezdirdi, va ustavina sovetlar hukumatining xalq nazaridan tushishina xidmat qildilar. Haqiqat achchiq, lekin oni yashiruv demokratiyaga buyuk jinoyatdir. Internatsionalist firqasidan boʻlgʻan ovqat komitetining raisi ochiqdan ochiq anarxistlik yoʻlina tushub, ishchi sinf tarafidan ochiluvda hukumatdan tasdiq etdirilgan. Kooperativlarning oʻz kayfina oʻxshamagʻanlarina komitetdan hissasini bermagani ustina, olarning oʻz ismlariga kelgan mollarnida tutub sargardon qila edi, baʼzi bir xabarlarga qaragʻanda, rais va uning tarafdorlari tarafidan har xil narsalar musodara qilinub egalarina na aqcha va nada kvitansiya ham berilmagan emish. Soʻnggʻi vaqtlarda olarning chit, oq yogʻ, choy, oyoq kiyumi kabi eng zarur va muhim narsalarni oʻzaro taqsim qilgʻanliqlari ishonchli kishilardan eshitilgali. Agarda shul ishlar darsin boʻlub ovqat komitetining muhim oʻrinlarda shunday suisteʼmollar davom etsa, tezdin, sovetlar hukumatina, xalq tarafidan ochiqdan ochiq nafrat bayon etiluvga sabab boʻlajaq. Hozirgi kundada ovqat komitetidan jabr koʻruvchilar musulmon ishchilaridir.

Haqiqatni aytmak ostina yashiruv ahmoqlikdir. Shuning uchun 104-nomer “Ulugʻ Turkiston”da ovqat komitetlari bitsun, degan soʻzimni tagʻinda qutlayman va fikringa Turkistonda yashovchi xalqning 99 protsenti qoʻshiluvina iymonim komil.ovqat komitetlarini taratuv haqinda 5-nomer “Sovetskiy Turkestan”da bir muhim qarorda nashr etildi.

Eski shahar komiteti aʼzolarining sabotajchiligʻina, eski shaharga tevushli haqni demokratiya bayrogʻi tagida turub yangi shahardan ayirib ola olmogʻanini, xalqgʻa taratilgʻan mollarning bahosi yangi shahar ovqat komitetindagiga qaragʻanda necha hissa qimmatligi dalil va shoyon taajjubdir. Masalan yangi shaharda turuvchilar kunina yorti qadoq non olub qadogʻina 25 tin toʻlaganlarinda eski shaharda turuvchilar kunida nim chorak qadoq non olub qadogʻina 1 soʻmdan toʻlab turalar. (bunim chorak qadogʻini yaqinda bera boshladilar. Yoʻqsa ilk haftada jon boshina chorak qadok un berila edi.) Qand, shakarning qadogʻini 1 soʻm 50 tin hisoblab, 6 oyda jon boshigʻa nim chorak qadoqdan beralar. Choy, kerosin, zigʻir moyi va shunga oʻxshash mollarni yangi shahardagiga qaragʻanda ortiq toʻlab olamiz. Shular ustinda berilgan ovqatlarining nochorligʻinida eʼtiborga olsaq, eski shahar ovqat komitetining xalqgʻa ochiqdan ochiq jabr qilub turgʻanligʻi koʻrinadir.

Komitet a'zolarining oq un, oq yog', chit va oyoq kiyumlari kabi zarur va muhim narsalarnida o'zaro taqsim qiluvlari, umumiy kambag'allar haqina zo'r jinoyat bo'lsa kerak. Mana bizning eski shahar ovqat komitetining musulmonlar uchun bo'lg'an ulug' xidmatlari shundan iborat.

*G'ozil Yunus Muhammad o'g'li. "Ulug' Turkiston" gazetasi  
1918-yil 20-iyul, 119-son.*

**(G.O.)**